

## DAVLAT BYUDJETI VA UNING KASSAVIY IJROSI BO`YICHA OPERATSIYALAR

Assistant: *Abduvahobov Shaxzod*

Talaba: *Rashidov Samandar*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bank ishi asoslari fanining davlat byudjeti va uning kassaviy ijrosi bo`yicha operatsiyalar mavzusini rivojlantirishga bag`ishlangan. Shuningdek, davlat byudjeti haqida malumotga ega bolish ham ko`zda tutiladi. Shuni ham aytib otish kerakki, davlat byudjetining kassaviy ijrosi bo`yicha operatsiyalariga yangiliklar kiritish soha rivojiga katta hissa qo`shadi.

**Kalt so`zlar:** davlat byudjeti, bank, mulkchilik, soliq daromad.

**Аннотация:** Данная статья посвящена развитию темы банковских основ государственного бюджета и операций по его кассовому исполнению. Также предусмотрено наличие информации о государственном бюджете. Следует также отметить, что внедрение инноваций в операции кассового исполнения государственного бюджета вносит большой вклад в развитие отрасли.

**Ключевые слова:** государственный бюджет, банк, собственность, налоговые поступления.

**Annotation:** This article is dedicated to the development of the subject of banking fundamentals of the state budget and operations on its cash execution. It is also envisaged to have information about the state budget. It should also be mentioned that the introduction of innovations in the operations of cash execution of the state budget makes a great contribution to the development of the sector.

**Key words:** state budget, bank, ownership, tax revenue.

### KIRISH

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti o‘z ichiga respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarni oladi. Bundan tashqari Davlat budjeti tarkibida Respublika yo‘l jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasining maxsus hisobvarag‘i, Ish bilan ta’minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi hamda O‘zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari jamlanadi.

2. Davlat maqsadli jamg‘armalarini tuzish, jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budgeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budgetini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarkibidagi tumanlar va shaharlar budgetlarini o‘z ichiga oladi.

4. Viloyat budgeti viloyat budgetini, viloyatga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar budgetlarini o‘z ichiga oladi.

5. Tumanlarga bo‘linadigan shaharning budgeti shahar budgetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budgetlarini o‘z ichiga oladi.

6. Tumanga bo‘ysunadigan shaharlari bo‘lgan tumanning budgeti tuman budgetini va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar budgetlarini o‘z ichiga oladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining kassa ijrosi hisobi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 13-iyulda ro‘yxatga olingan 773-soni “[O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasি](#)”ga hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1999-yil 25-dekabrdagi 289-soni “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasи”ga muvofiq yuritiladi.

8. Davlat budgeti daromadlariga quyidagilar kirim qilinadi:

1) qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar;

2) davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;

3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo‘yicha davlat multiga o‘tgan pul mablag‘lari;

4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

5) rezident yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budget ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to‘lovlar;

6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

9. Davlat budgetiga kelib tushgan mablag‘larning to‘g‘ri va o‘z vaqtida kirim qilinishini ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xos raqami va STIRi (soliq to‘lovchining identifikatsion raqami) bilan Markaziy bankning Toshkent shahar va hududiy Bosh boshqarmalarining Hisob-kitob kassa markazlarida hamda tijorat banklarida 23402 “Respublika budgetining mablag‘lari” hisobvarag‘i budget daromadlari tasnifiga asosan ochiladi.

10. Mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Davlat budgetiga o‘tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig‘imlari, bojlari va boshqa majburiy to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan qabul qilinadi va belgilangan tartibda 23402 “Respublika budgetining mablag‘lari” hisobvarag‘iga kirim qilinadi.

11. Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha yuridik shaxslar (soliq to'lovchilar) tomonidan Davlat budgetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetiga va mahalliy budgetlarga to'lanadigan soliq va boshqa to'lovlar, to'lov summasidan qat'i nazar, pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

12. Jismoniy shaxslar soliq va boshqa to'lovlarini naqd pul yoki pul o'tkazish orqali amalga oshirishi mumkin.

13. Budgetga to'lanadigan soliq va boshqa to'lovlar vakolatli organlar tomonidan o'rnatilgan tartibda naqd pul shaklida qabul qilinishi va banklarga topshirilishi mumkin.

14. Davlat budgetining 23402 "Respublika budgetining mablag'lari" hisobvarag'iga kelib tushgan soliq va boshqa to'lovlar hisobidan belgilangan tartibda va miqdorda Respublika budgetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetiga va mahalliy budgetlarga ajratma qilinadi.

15. Davlat budgetiga soliq va boshqa to'lovlarini to'lash maqsadida taqdim etilgan to'lov hujjatlarining to'g'ri to'ldirilganligi va to'lov to'g'ri amalga oshirilayotganligi bank tomonidan tekshirilgandan keyin to'lovga qabul qilinishi lozim. Banklarga taqdim etilgan to'lov hujjatlari noto'g'ri to'ldirilgan bo'lsa, ularning sabablari ko'rsatilgan holda to'lov hujjatlari taqdim etuvchilarga qaytariladi.

16. Soliq to'lovchilarning talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlarida mablag'lari yetarli bo'lmasa, banklarga taqdim etilgan to'lov hujjatlari 2-sonli kartotekaga kirim qilinadi va to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999-yil 30-yanvarda ro'yxatga olingan 615-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomaga asosan, qonunchilikda boshqa holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa amalga oshiriladi.

17. Soliq to'lovchilarning to'lov topshiriqnomalari hamda soliq va moliya organlarining inkasso topshiriqnomalari banklarning aybi bilan o'z vaqtida ijro etilmasa, banklar har bir muddati o'tgan kun uchun qonunchilikda belgilangan tartibda budgetga o'z vaqtida o'tkazilmagan summaning 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi.

8. Davlat budgetiga to'lanadigan soliq va boshqa to'lovlar alohida yozilgan to'lov hujjatlariga asosan Davlat budgeti daromadlari hisobvarag'iga kirim qilinadi.

19. Davlat budgeti daromadlari hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'larning kirim qilinganligi to'g'risida hisobvaraqdan ko'chirma va ilovalar banklar tomonidan o'rnatilgan tartibda soliq organlariga beriladi.

20. Davlat budgeti daromadlari hisobvarag'ida ko'zda tutilmagan soliq va boshqa to'lovlar soliq to'lovchilar tomonidan to'langanda, bu mablag'lar Davlat budgeti daromadlarining 12-bo'limi, 25-paragrafi, 352-“Boshqa tushumlar” shartli hisobvarag'iga kirim qilinadi.

**Xulosa:** Davlat byudjeti — davlatning muayyan vaqt uchun mo‘ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui. Davlat byudjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat moliyasining bosh bo‘g‘ini hisoblanadi. Davlat byudjetining cassaviy ijrosi bo`yicha operatsiyalariga yangiliklar kiritish ushbu soha rivojiga katta hissa qo`shadi deb o`ylayman. Ushbu operatsiyalarni samarali bajarish haqida yuqorida aniq qilib aytib o`tilgan. Shuni ham aytib o`tish kerakki, yillik daromadni rivojlantirish davlat byudjetini boyitishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdamov Oybek Aslonjonovich, G’AZNACHILIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH JARAYONI, JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT(JMBM)/SJIF
2. Gulmira Samandarova, Improving budget transparency in Uzbekistan, Society and innovations.
3. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Possibilities of Increasing the Activity of Banks in the Securities Market, Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP), Volume 02 Issue: 03/2023 ISSN: 2751-7551 (159-162)
4. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Analysis of Existing Management Mechanisms and Assessment Methods of The Bank’s General Financial Risk, Journal of Intellectual Property and Human Rights, Volume:02 Issue: 05/ May-2023, ISSN:2720-6882 (227-231)
5. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Improvement of Investment Activities in the Service Sector, Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES), Volume:02 Issue:03/2023 (53-58)
6. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Factors Causing Credit Risks in Commercial Banks and Their Assessment, Journal of Intellectual Property and Human, Volume:02 Issue:05/May-2023 ISSN:2720-6882 (221-226)
7. Sharipova N. D., Asadova S. D. THE ROLE OF BANKS IN THE MODERN MONETARY SYSTEM //Procedia of Theoretical and Applied Sciences. – 2023. – Т. 6. – С. 55-62.
8. Шарипова Н.Д., Чориев Я.А. СТРАХОВАНИЕ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management. -2023- Т.2. - С. 92-99.
9. Sharipova N. D., Jurayev I. S. THEORETICAL FOUNDATIONS OF MONETARY POLICY// INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIONS IN ENGINEERING RESEARCH AND TECHNOLOGY. – 2023. -Т. 10. -С. 171-173.
10. Sharipova N. D., Aliboyev L.Sh. THE IMPORTANCE OF ANTI-INFLATIONARY POLICY AND INFLATION TRADING IN UZBEKISTAN//

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT. -2023. -T. 10. -C. 92-94.

11. Tursunov, F. M. (2023). TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK
12. XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI
13. BARTARAF ETISH AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(30), 75–81.
14. Tursunov Faridun Mustafoyevich. (2023). OPPORTUNITIES FOR REMOTE BANKING SERVICES TO GROW IN REPUBLIC OF UZBEKISTAN'S COMMERCIAL BANKS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 4–7.
15. Каримова А.М., Махсудов О.Ш. Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan / Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт журнали, 2023-йил, октябрь, 10-сон, 79-83.
16. Ниязов З. Д., Махсудов О.Ш. Investment attractiveness of the enterprise, as well as factors influencing its development in the economy of Uzbekistan./ Иқтисодиёт, молия ва инновациялар халқаро илмий журнали, декабрь 29, 2023 1(4) сон, 47-55.
17. Каримова А.М., Ниязов З. Д. Махсудов О.Ш. Кредитная поддержка инновационного развития / SCHOLAR 1(32) сон, ноябрь 2023, 171-179.
18. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.